

# MUHANDISLIK

## & IQTISODIYOT

# №5

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

# 2026 MAY



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™  
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic Resource Index  
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ  
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ  
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА  
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, may.

## **Bosh muharrir:**

**Zokirova Nodira Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

## **Bosh muharrir o'rinbosari:**

**Shakarov Zafar G'afforovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

## **Tahrir hay'ati:**

**Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich**, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shaumarov Said Sanatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Turayev Bahodir Xatamovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Allayeva Gulchexra Jalgasovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Arabov Nurali Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xamrayeva Sayyora Nasimovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Irmatova Aziza Baxromovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Amanov Otabek Amankulovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Qurbonov Samandar Pulatovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tabayev Azamat Zaripbayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sxay Lana Aleksandrovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kalanova Moxigul Baxritdinovna**, dotsent

**Ashurzoda Luiza Muxtarovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Bauyetdinov Majit Janizaqovich**, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li**, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich**, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

**Jo'raeva Malohat Muhammadovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

**Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

**Kalonova Moxigul Baxritdinovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Norboyev Odil Abrayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Pardaev Umidjon Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich**, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK  
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:**

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



# MUNDARIJA

STERJEN KO'NDALANG KESIM YUZASI ELLIPS SHAKLIDAGI TRANSFORMATORNING QISQA TUTASHUV PAYTIDAGI MEKANIK ZO'RIQISHGA CHIDAMLILIGI .....	10
<b>Bekishev Allabergen Yergashevich, Yakubova Dilfuza Kuanishovna, Saidova Nozima Akkulovna</b>	
ВЛИЯНИЕ ДЕМОГРАФИЧЕСКОЙ ДИНАМИКИ НА РАЗВИТИЕ СФЕРЫ УСЛУГ: ЭКОНОМЕТРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ РЕГИОНОВ УЗБЕКИСТАНА .....	19
<b>Мусаева Шоира Азимовна, Муйинжонов Хусейн Алишеревич</b>	
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ ЦИФРОВИЗАЦИИ ЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ КОМПАНИЙ И ВОЗМОЖНОСТИ ЕГО АДАПТАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ .....	28
<b>Габбарова Ильмира Володиевна</b>	
BALAND BINOLAR FASADLARINI PARDOZLASH TEXNOLOGIYALARINI EKSPLOATATSION ISHONCHLILIK VA XIZMAT MUDDATINI UZAYTIRISH ASOSIDA OPTIMALLASHTIRISH .....	34
<b>Amirov Shavkat Rahmatullayevich</b>	
ИНТЕГРАЛЬНАЯ ОЦЕНКА УСТОЙЧИВОГО ЦИФРОВОГО РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА И ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТУРИСТСКОГО ПОТЕНЦИАЛА БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ .....	41
<b>Усманова Азиза Баходировна</b>	
PEREGONDAGI HARAKATNI BOSHQARISH TIZIMLARINI MIKROPROTSESSORLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRILGAN TUZILMAVIY SXEMASINI ISHLAB CHIQISH .....	46
<b>Xujamkulov Eldor G'ayratjon o'g'li</b>	
INVESTITSIYALAR HAJMINI OSHIRISHGA QARATILGAN CHORA-TADBIRLAR VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI .....	55
<b>Alimova Dilafrō'z Tohir qizii</b>	
HUDUDLAR KESIMIDA AHOLI O'SISHINING BANDLIK DARAJASIGA TA'SIRINI EKONOMETRIK BAHOLASH (O'ZBEKISTON MISOLIDA) .....	61
<b>Xusniddinova Gulnoza Ulug'bek qizi</b>	
QUYOSH FOTOELEKTRIK PANELLARI SAMARADORLIGIGA ATROF-MUHIT OMILLARI VA CHANGLANISHNING TA'SIRI HAMDA ULARNI KAMAYTIRISHGA QARATILGAN INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR .....	67
<b>Botirov Bozorbek, Iskandarova Charos, Avazov Jonibek, Sultonov Abror</b>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHNING HOZIRGI HOLATI TAHLILI ..	75
<b>Rajapov Xayrulla Bekdurdıyevich, Sharipova Lobar Umrbek qizi</b>	
INTERPOLATSION TIKLASH ALGORITMLARINING OCR ANIQLIGIGA TA'SIRINI BAHOLASH .....	82
<b>Aliyev Nodirbek Hamidullo o'g'li</b>	
IKORXONALARDA KORPORATIV BOSHQARUVNI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI VA INSTITUTSIONAL OMILLARI .....	90
<b>Muxtorova Shaxlo Farxodovna</b>	
O'ZBEKISTONDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARINI EKONOMETRIK PROGNOZLASH .....	94
<b>Qo'ziboyev Behzod Hamidovich</b>	
KPI-BASED PERFORMANCE MANAGEMENT AND ITS IMPACT ON EMPLOYEE PRODUCTIVITY .....	99
<b>Sultanova Kamila Mukhtorali kizi</b>	
SANOAT KORXONALARI IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH .....	104
<b>Tursunxo'jayev Sardor Jamoliddin o'g'li</b>	
FARG'ONA VILOYATI MAHALLALARIDA TADBIRKORLIK VA HUNARMANDCHILIKNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOY-IQTISODIY VA INSTITUTSIONAL OMILLARINI BAHOLASH .....	110
<b>Tuxtasinov Zafarjon Odiljonovich</b>	



MHXS STANDARTLARIGA O'TISH: KORXONALAR UCHUN AMALIY MUAMMOLAR VA YECHIMLAR ....	116
<b>Eshniyazova Yulduz Yuldashbayevna</b>	
TURMUSH FAROVONLIGINI BAHOLASHNING KO'P O'LCHOVLI USULLARI VA MEZONLARI .....	120
<b>Turdikulova Moxira Maxmasharifovna</b>	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING MOLIVAVIY-IQTISODIY IMPERATIVLARI .....	125
<b>Kaxorova Zamira Safaraliyevna</b>	
YENGIL SANOAT KORXONALARIDA RO'Y BERISHI MUMKIN BO'LGAN BAXTSIZ HODISALAR VA UNI BARTARAF ETISH CHORA-TADBIRLARI .....	131
<b>Dehqonov Oyatillo Mansurbek o'g'li, Abduraxmanov Abdurashid Ataxanovich</b>	
VTULKA DETALINI ISHLAB CHIQRISHDA SHTAMPLASH TEXNOLOGIK JARAYONINI ISHLAB CHIQRISH... .....	136
<b>Abdullayev Fatxulla, Xasanov Kamoliddin, Yolg'ashova Madina, Jo'rayev Muhiddin</b>	
JAHON MOLIVAVIY TIZIMINING TRANSFORMATSIYASI.....	140
<b>Qobilova Nodira Qayumjon qizi, Normurodov X.E.</b>	
KORXONALARDA "TEJAMKOR ISHLAB CHIQRISH" KONSEPSIYASIDAN FOYDALANISHNING XORIJ TAJRIBASI .....	144
<b>Mamasoliyev G'ayratbek Maxamadyusupovich</b>	
HUDUDIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA MAHSULOT EKSPORTINI DIVERSIFIKATSIYALASH YO'LLARI.....	149
<b>Mamadjanova Tuyg'unoy Axmadjanovna</b>	
PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASTERLARIDA ISHLAB CHIQRISHNI DIVERSIFIKATSIYA QILISH ASOSIDA YUQORI QO'SHILGAN QIYMATLI MAHSULOTLAR ULUSHINI KENGAYTIRISH .....	154
<b>Yusupova Feruza Yo'ldoshevna</b>	
AHOLINING MOLIVAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA MIKROLOYIHALARNING O'RNI .....	159
<b>Irgashev Anvar Farxodovich</b>	
XALQARO KOMPANIYALARDA INNOVATSION BOSHQARUV TIZIMLARINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI.....	166
<b>Raxmankulov Sherzod Shokirovich</b>	
ИССЛЕДОВАНИЕ ПРОЦЕССА ДЕГРАДАЦИИ КОМПОНЕНТОВ ФОТОЭЛЕКТРИЧЕСКИХ МОДУЛЕЙ В ЗАВИСИМОСТИ ОТ КЛИМАТИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ: ЛИТЕРАТУРНЫЙ ОБЗОР .....	171
<b>Дыскин Валерий Григорьевич, Курбанов Юнус Муртаза угли, Жубаназаров Ринат Шапагат Улы</b>	
RIVOJLANGAN DAVLATLARDA CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH TIZIMINING INSTITUTSIONAL ASOSLARI .....	177
<b>O'tbosarov Abrorbek Adxamjon o'g'li</b>	
DAVLAT ORGANLARI VA TASHKILOTLARI ICHKI AUDITORLARINING PROFESSIONAL AXLOQ QOIDALARINI ISHLAB CHIQRISH.....	182
<b>Xamidova Zarifa Urol qizi</b>	

# DAVLAT ORGANLARI VA TASHKILOTLARI ICHKI AUDITORLARINING PROFESSIONAL AXLOQ QOIDALARINI ISHLAB CHIQUISH

## Xamidova Zarifa Urol qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Budjet hisobi va g‘aznachilik” kafedrası, PhD., dotsent

E-mail: [zari\\_khamidova@mail.ru](mailto:zari_khamidova@mail.ru)

ORCID: 0000 0002 9785 4170

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada davlat organlari va tashkilotlarida ichki audit xizmati faoliyati hamda auditorlarning professional axloq qoidalarining ahamiyati, nazariy va amaliy jihatlari tadqiq etilgan. Tadqiqot davomida ichki audit jarayonlarida manfaatlar to‘qnashuvining oldini olishga qaratilgan professional axloq qoidalarini joriy etish masalalari va ularning asosiy vazifalari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, axloqiy me‘yorlarga rioya qilish bilan bog‘liq dolzarb jihatlar, xalqaro tajribada qo‘llanilayotgan zamonaviy yondashuvlar hamda auditorlarning kasbiy rivojlanishi va axloqiy kompetensiyalarini takomillashtirish masalalari tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** ichki audit, davlat sektori, professional axloq qoidalari, etik me‘yorlar, boshqaruv tizimi, xolislik, auditorlik standartlari, professionallik, hisobdorlik, samaradorlik, ichki nazorat.

**Аннотация.** В данной статье исследованы деятельность службы внутреннего аудита государственных органов и организаций, а также значение профессиональных этических норм аудиторов, их теоретические и практические аспекты. В ходе исследования рассмотрены вопросы внедрения профессиональных этических правил, направленных на предотвращение конфликта интересов в процессах внутреннего аудита, а также их основные функции. Кроме того, проанализированы актуальные аспекты соблюдения этических норм, современные подходы международной практики, а также вопросы совершенствования профессионального развития и этических компетенций аудиторов.

**Ключевые слова:** внутренний аудит, государственный сектор, профессиональная этика, этические нормы, система управления, объективность, аудиторские стандарты, профессионализм, подотчётность, эффективность, внутренний контроль.

**Abstract.** This article examines the activities of internal audit services in government bodies and organizations, as well as the importance of auditors’ professional ethical standards and their theoretical and practical aspects. The study considers the introduction of professional ethical rules aimed at preventing conflicts of interest in internal audit processes and highlights their main functions. In addition, the paper analyzes current issues related to compliance with ethical standards, modern approaches used in international practice, and ways to enhance auditors’ professional development and ethical competencies.

**Keywords:** internal audit, public sector, professional ethics, ethical standards, management system, objectivity, auditing standards, professionalism, accountability, efficiency, internal control.

## KIRISH

Davlat organlari va tashkilotlarining ichki audit xizmati jamoatchilik ishonchini ta‘minlashda muhim o‘rin tutuvchi professional faoliyat yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Jamiyat taraqqiyoti va boshqaruv tizimining modernizatsiyalashuvi bilan bir qatorda ichki audit sohasi ham izchil takomillashib bormoqda. Davlat sektorida ichki audit xizmati faoliyatini samarali tashkil etish nazorat jarayonlariga yanada chuqurroq yondashuvni talab etadi. Shu bois, ichki auditorlarga ularning bilim darajasi, malakasi va amaliy tajribasidan kelib chiqib mas‘uliyatli vazifalar yuklatiladi. Auditorlarning kasbiy bilimlari bilan bir qatorda, ularning etik me‘yorlarga rioya qilishi, odob-axloq tamoyillariga amal qilishi hamda kasbiy etika talablariga sodiqligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Muayyan sohada kasbiy qadriyatlar va axloqiy tamoyillarning mavjudligi hamda amaliyotda samarali qo‘llanilishi mutaxassislariga o‘z kasbiy majburiyatlarini chuqur anglash, turli kasbiy vaziyatlarni to‘g‘ri baholash va ularni amaldagi qadriyatlar tizimi bilan uyg‘un holda amalga oshirish imkonini beradi.

Insonlarning mehnat faoliyati jarayonidagi o‘zaro odob-axloq munosabatlari kasbiy etika orqali tartibga



solinadi. Jamiyatning barqaror rivojlanishi va samarali faoliyat yuritishi moddiy ne'matlar hamda ma'naviy qadriyatlarining uzluksiz yaratilishi bilan chambarchas bog'liqdir. Shu bilan birga, jamiyat taraqqiyoti nafaqat huquqiy va iqtisodiy qonunlarga, balki kasbiy faoliyat asosida shakllanadigan axloqiy tamoyillar va ma'naviy qadriyatlarga ham bevosita tayanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Jahon miqyosida auditorlik etikasi shakllanishi va rivojlanishiga AICPA (Amerika qasamyod qilgan buxgalterlar instituti), GAAS (auditorlik faoliyatining xalqaro standartlari) hamda SEC (Qimmatli qog'ozlar va birja operatsiyalari bo'yicha komissiya) kabi xalqaro tashkilotlar muhim ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Mazkur tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan standart va tamoyillar auditorlik faoliyatining professional asoslarini mustahkamlash, etik me'yorlarni takomillashtirish hamda auditorlik xizmatlari sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro Ichki Auditorlar Instituti (IIA) standartlarida axloq va etika talablari, professionallik hamda kasbiy tamoyillarga oid aniq me'yorlar belgilangan bo'lib, auditorlik etikasi har bir nazorat jarayonining asosiy tarkibiy qismi sifatida e'tirof etiladi. Institutning axloq me'yorlari ichki audit tushunchasi bilan bir qatorda ichki audit kasbi va amaliyotiga oid tamoyillarni, shuningdek, ichki auditorlardan kutiladigan xulq-atvor normalarini ham o'z ichiga oladi. Ushbu qoidalar tamoyillarni amaliyotga samarali tatbiq etishga xizmat qiladi hamda ichki auditorlarning axloqiy xulq-atvorini tartibga solishga yo'naltirilgan. IIA standartlariga asoslangan axloq kodeksi auditor faoliyatida yaxlitlik, xolislik, maxfiylik va professional kompetentlikni ta'minlovchi muhim tamoyillar majmuasi hisoblanadi [11].

Shuningdek, Steven J. Kachelmeier o'z ilmiy tadqiqotlarida ichki audit xodimlarining xatti-harakatlari, javobgarlik darajasi hamda audit etikasining samaradorlikka ta'sirini empirik usullar asosida tahlil qilgan [10]. Mazkur tadqiqotlar auditorlik faoliyatida etik me'yorlarga rioya etish professional samaradorlikni oshirishda muhim omil ekanligini ko'rsatadi.

Xorijiy davlatlar amaliyotida ichki auditorlarning xulq-atvori, kasbiy etikasi va axloqiy me'yorlari maxsus axloq kodekslari orqali aniq tartibga solingan. Mamlakatimizda ham davlat sektori ichki auditorlari faoliyatida axloqiy me'yorlarni yanada takomillashtirishga qaratilgan normativ-huquqiy asoslarni rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususi sektor auditorlari va buxgalterlari uchun amaldagi axloq kodekslari mavjud bo'lsa-da, davlat sektorining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga oluvchi maxsus yondashuvlarni shakllantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shu bois, mahalliy olimlar tomonidan davlat xizmatchilarining kasbiy etikasi va axloqiy tamoyillariga oid ilmiy qarashlar ham ilgari surilgan.

Yurtimiz olimlari davlat xizmatchilarining axloqiy madaniyati va kasbiy etikasi masalalariga oid qator ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirganlar. Jumladan, akademik E. Yusupov "Axloq insonning aniq sharoitlarda sodir bo'layotgan voqea va hodisalarga mustaqil baho berishi hamda ularga nisbatan o'z munosabatini bildirishi hisoblanadi", deb ta'kidlaydi [5]. Shuningdek, boshqa tadqiqotchilar ham ayrim kasb egalarining faoliyati jamiyat taraqqiyoti, insonlarning sog'lig'i, ma'naviy kamoloti va huquqiy himoyasi bilan chambarchas bog'liqligini qayd etib, bunday kasb egalari yuqori darajadagi mas'uliyat, halollik va vijdon asosida faoliyat yuritishi zarurligini ta'kidlaydilar [6].

Kasbiy etika va axloqiy tamoyillar nafaqat ichki auditorlar, balki barcha kasb egalari faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa jamiyatda professional faoliyat samaradorligini oshirish, mas'uliyat va ishonch muhitini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda davlat organlari va tashkilotlari ichki auditorlarining professional axloq qoidalarini shakllantirish bilan bog'liq nazariy hamda amaliy jihatlar kompleks ravishda tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida ilmiy kuzatish, taqqoslash, tahlil va umumlashtirish usullaridan samarali foydalanildi. Xalqaro Ichki Auditorlar Instituti (IIA) standartlari, milliy ichki audit standartlari, shuningdek, xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy qarashlari atroflicha o'rganildi.

Shu bilan birga, davlat sektorida ichki auditorlar faoliyatida uchraydigan axloqiy holatlar hamda ularni samarali tartibga solish va takomillashtirish yo'nalishlari tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari asosida ichki auditorlarning professional faoliyatini yanada rivojlantirish, axloqiy tamoyillarga rioya etish darajasini oshirish hamda professional axloq qoidalarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy xulosalar va amaliy takliflar ishlab chiqildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatimizda davlat sektori ichki auditorlari faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadida professional axloq kodeksini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur kodeksni qabul qilish jarayonida amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarda axloqiy talablar va tamoyillarga oid aniq ko'rsatmalar hamda qoidalarni belgilash maqsadga muvofiqdir. Huquqiy tartibga solish jarayonida jamiyatning tarixiy, ma'naviy va axloqiy qadriyatlari, urf-odatlarini hamda an'analarini inobatga olish muhim hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, etika kodekslari fuqarolik jamiyatidagi jamoaviy munosabatlarni tartibga solish va kasbiy madaniyatni rivojlantirishning samarali vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

Auditorlar o'z kasbiy faoliyatini amalga oshirish jarayonida bilim va mahoratidan samarali foydalangan holda, mijoz hamda ish beruvchi topshiriqlarini xolis, mustaqil va professional yondashuv asosida bajarishlari lozim. Shu bilan birga, ular texnik va professional standartlarga qat'iy rioya etishlari zarur. Kasbiy etika esa insonning o'z kasbi oldidagi mas'uliyatini belgilovchi axloqiy me'yorlar tizimi sifatida muhim o'rin egallaydi.

Hozirgi kunda davlat organlari va tashkilotlari ichki auditida etika masalalariga oid ilmiy tadqiqotlar soni ortib borayotgani ushbu yo'nalishning dolzarbligini yanada oshirmoqda. Axloqiy tamoyillarni qabul qilish, amaliyotga joriy etish va ularga rioya qilish ichki audit tizimiga bo'lgan ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu sababli, mamlakatimizda ichki auditorlar uchun maxsus axloq kodeksini ishlab chiqish ularning professional faoliyatini samarali tashkil etish, tashkilotlar hamda ichki auditorlarning manfaatlarini himoya qilishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Jahon amaliyotida davlat sektori ichki audit xizmatlarini amalga oshiruvchi tashkilotlarning aksariyati Xalqaro Ichki Auditorlar Instituti (IIA) tomonidan ishlab chiqilgan axloqiy ko'rsatmalar va standartlarga asoslanadi yoki shu tamoyillar negizida o'z hujjatlarini shakllantiradi. Shu bois, IIA standartlari bugungi kunda ichki audit faoliyatini tashkil etishda eng nufuzli va keng qo'llaniladigan manbalardan biri hisoblanadi.

IIA ichki audit standartlari 2024-yilda yangilangan holda taqdim etilgan bo'lib, unga muvofiq 2-bo'lim "Etika va professionallik" deb nomlangan. Mazkur bo'lim 5 ta tamoyil va 13 ta standartni o'z ichiga oladi hamda hajm jihatidan eng muhim bo'limlardan biri hisoblanadi. Unda professional ichki auditorlar, ichki audit rahbarlari va ichki audit xizmatlarini ko'rsatuvchi tashkilotlar uchun xulq-atvor qoidalari hamda professional talablar batafsil yoritilgan. Ushbu tamoyil va standartlarga rioya etish ichki auditor kasbiga bo'lgan ishonchni oshiradi, ichki audit funksiyasida etik madaniyatni shakllantiradi hamda auditorlarning ish natijalari va xulosalarining ishonchligini ta'minlaydi.

Davlat organlari va tashkilotlari ichki auditorlari uchun axloq kodeksini ishlab chiqish va qabul qilish jarayonida IIA tomonidan belgilangan axloqiy me'yorlar va standartlarni chuqur o'rganish hamda ularga asoslangan holda milliy qoidalarni ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Barcha ichki auditorlar axloq va professionallik standartlariga rioya qilgan holda faoliyat yuritishlari zarur. Mazkur tamoyillar asosida tashkil etilgan faoliyat ichki auditorlarning kasbiy samaradorligini oshirish, xizmat sifatini yaxshilash hamda ichki audit tizimini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi (1-rasm).




1-rasm. Axloq va professionallik tamoyillariga muvofiq faoliyat natijalari



Mavjud ichki audit tamoyillari bilan Xalqaro Ichki Auditorlar Instituti (IIA)ning axloq va professionallik tamoyillarini o'zaro taqqoslash hamda ularning natijalarini chuqur tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Barcha ichki auditorlar etika va professionallik standartlari asosida shakllangan axloqiy tamoyillarga qat'iy rioya qilishlari zarur. Shu bilan birga, ichki auditorlarning boshqa etika kodekslari, qoidalar va me'yorlarga, jumladan, tashkilotda qabul qilingan ichki tartib-qoidalarga amal qilishi ularni etika va professionallik standartlariga rioya etish majburiyatidan ozod etmaydi.

Ichki auditor faoliyatida professional xulq-atvor, xolislik va mas'uliyat tamoyillariga amal qilish muhim mezonlardan biri hisoblanadi. Shuningdek, ayrim xulq-atvor holatlarining etika va professionallik tamoyillarida bevosita qayd etilmaganligi ularning kasbiy muhitda noo'rin yoki nomuvofiq deb baholanish ehtimolini inkor etmaydi. Shu sababli, ichki auditorlar har qanday vaziyatda kasbiy etika, professional madaniyat va tashkilot manfaatlariga mos ravishda faoliyat yuritishlari maqsadga muvofiqdir (2-rasm).



2-rasm. Xalqaro va milliy ichki audit standartlarining etik va professional tamoyillari


Davlat organlari va tashkilotlarining ichki audit xizmatlari faoliyatini tashkil etishda asosiy tamoyillarni auditorlik kasbi amaliyoti nuqtayi nazaridan tavsiflash muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro ichki audit

standartlarida belgilangan etika va professionallikka oid tamoyillarni ichki auditning milliy standartlari tarkibiga kiritish, ularni amaliyotga samarali joriy etish hamda ichki audit jarayonlarida qo'llash mexanizmlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Ichki auditorlar etika sohasida muntazam kasbiy ta'lim olish imkoniyatlaridan samarali foydalangan holda halollik, professionallik va kasbiy mahoratga oid bilim hamda ko'nikmalarini muntazam ravishda rivojlantirib borishlari zarur. Ta'lim jarayoni nazariy bilimlarni boyitish bilan bir qatorda, ish joyidagi amaliy faoliyat, murabbiylik va nazorat tizimi orqali ichki auditorlarda professional jasorat, muloyimlik, hurmat asosida muloqot qilish va murakkab vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Halollik yoki kasbiy jasorat bilan bog'liq murakkab vaziyatlar yuzaga kelganda, ichki auditorlar eng maqbul yechimni topish maqsadida masalani bevosita rahbar bilan muhokama qilishlari tavsiya etiladi.

Ichki auditorlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida ichki audit rahbari etika tamoyillariga asoslangan qarorlar qabul qilishni talab etuvchi real va shartli vaziyatlarni muhokama qilish, malaka oshirish va o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish uchun zarur sharoitlarni yaratishi lozim. Ichki audit funksiyasini samarali boshqarish auditorlik topshiriqlarining bajarilishi ustidan tizimli nazoratni amalga oshirishni hamda ichki auditorlar ish sifatini davriy ravishda tahlil qilib borishni o'z ichiga oladi. Jumladan, auditorlik topshirig'i dasturini tasdiqlash yoki ish hujjatlarini ko'rib chiqish jarayonida auditorlik topshirig'i rahbari ichki auditorlarga ularning halolligi va tamoyillarga sodiqligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan holatlarni bartaraf etish yuzasidan tegishli tavsiyalar berishi mumkin. Shuningdek, ichki auditorlarning ish sifatini baholash jarayonida manfaatdor tomonlarning ichki auditorlarning halolligi va kasbiy jasoratiga doir fikr-mulohazalarini o'rganish ham muhim ahamiyatga ega.


Etika tamoyillari, avvalo, adolat prinsipiga asoslanib, barcha vazifalarni xolis va adolatli amalga oshirishni nazarda tutadi. Adolat auditor faoliyatining barcha yo'nalishlariga taalluqli bo'lib, auditorning kasbiy xulq-atvori tashkilotdagi umumiy professional muhit shakllanishida muhim omil hisoblanadi. Auditor o'z faoliyati davomida erishilgan natijalarni qabul qilingan xulq-atvor standartlari va protseduralari bilan taqqoslaydi hamda ularga sodiq holda faoliyat yuritadi. Shu bois, auditorning xatti-harakati va professional yondashuvi tashkilotdagi boshqa xodimlar uchun ham ijobiy namuna bo'lib xizmat qiladi (3-rasm).



3-rasm. Ichki auditorlar etika tamoyillarini amaliyotda qo'llashda bajarishi lozim bo'lgan jihatlar

Auditorlik kasbi nafaqat ish jarayonida, balki xizmat faoliyatidan tashqarida ham yuqori darajadagi mas'uliyat, professional madaniyat va munosib xulq-atvorni talab etadi. Shu bois, auditorning umumiy kasbiy qiyofasi qabul qilingan axloqiy va professional xulq-atvor qoidalariga to'liq mos kelishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuv auditorlik faoliyatining nufuzi va jamoatchilik ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi. Etika va professionallikka oid tamoyillar adolat bilan bir qatorda xolislik prinsipining ham ustuvorligini ta'minlashi zarur. Xolislik barcha kasbiy qoidalar va tamoyillarning asosiy negizi sifatida namoyon bo'ladi.

Xolislik — ichki auditorlarga o'z professional fikrini boshqa shaxslarning qarashlariga qaram bo'lmagan holda mustaqil shakllantirish, vazifalarni xolis bajarish hamda ichki audit maqsadlariga samarali erishish imkonini beradigan muhim kasbiy yondashuvdir. Tashkilotda ichki audit funksiyasining mustaqil maqomga ega bo'lishi ichki auditorlarning xolislikni saqlash va professional qarorlarni erkin qabul qilish qobiliyatini yanada mustahkamlaydi [7] (4-rasm).



4 – rasm. Xolislik tamoyiliga xos jihatlar

Mazkur tamoyil auditorlik faoliyatining eng muhim jihatlaridan biri bo‘lgan xolislik prinsipini yoritib beradi. Auditor tomonidan taqdim etilgan xulosa va tavsiyalar professional yondashuv, mustaqillik hamda ishonchlilik asosida shakllantirilishi zarur. Shu sababli, ichki auditor tomonidan amalga oshirilgan baholashlarning haqqoniyligi, asoslanganligi va amaldagi holatga mosligi alohida ahamiyat kasb etadi. Nazorat doirasini belgilash jarayonida qaysi yo‘nalishlar tekshirilgani va qaysi jihatlar nazorat doirasidan tashqarida qolganini aniq va ochiq ko‘rsatish muhim hisoblanadi. Bu auditorlik hisobotining shaffofligi va ishonchligini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Ichki auditorlar tashkilotda etika tamoyillariga asoslangan korporativ madaniyatni shakllantirish va rivojlantirishga ko‘maklashishlari zarur. Agar ichki auditorlar tashkilotning axloqiy talablariga mos kelmaydigan xatti-harakatlarni aniqlasalar, ular amaldagi siyosat va tartiblarga muvofiq ravishda tegishli tartibda bu haqda ma‘lumot berishlari lozim. Shu bilan birga, ichki audit funksiyasi metodologiyasida ichki auditorlar faoliyatiga oid aniq talablar belgilanishi maqsadga muvofiqdir. Jumladan, sovg‘alar, xizmatlar yoki pul mablag‘larini qabul qilish, xolislikka ta‘sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan holatlarni aniqlash hamda bunday vaziyatlarda tegishli choralarini ko‘rish masalalari alohida tartibga solinishi zarur.

Ko‘plab tashkilotlarda sovg‘alar, xizmatlar va pul mablag‘larini qabul qilish bo‘yicha ichki siyosat mavjud bo‘lib, ularda ruxsat etilgan sovg‘alarning qiymati yoki shakliga doir cheklovlar belgilanadi. Ichki audit faoliyatida xolislik tamoyili ustuvor ahamiyatga ega bo‘lganligi sababli, ichki audit rahbari tashkilot siyosatida nazarda tutilgan talablardan ham qat‘iyroq me‘yorlarni joriy etishi mumkin. Ichki auditorlar sovg‘a, xizmat yoki boshqa manfaatlarni qabul qilish ularning professional mulohazalariga ta‘sir ko‘rsatishi yoki audit natijalarining xolisligiga shubha uyg‘otishi mumkinligini doimo inobatga olishlari zarur.

Shuningdek, ichki auditorlar ichki audit faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish bilan bog‘liq amaldagi qonunchilik, me‘yoriy-huquqiy hujjatlar, maxfiylik, axborotni himoya qilish hamda axborot xavfsizligiga oid siyosat va tartiblarni chuqur tushunishlari va ularga qat‘iy rioya qilishlari lozim. Bu esa ichki audit tizimining samaradorligini oshirish, tashkilot manfaatlarini himoya qilish va auditorlik faoliyatiga bo‘lgan ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa sifatida ta‘kidlash mumkinki, davlat organlari va tashkilotlarida ichki auditorlarning professional axloq qoidalarini ishlab chiqish hamda ularga rioya etilishini ta‘minlash ichki audit tizimi samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Davlat sektorida ichki audit xizmatlarini zamonaviy yondashuvlar asosida takomillashtirish, ularni xalqaro tajribalar bilan uyg‘unlashtirish hamda me‘yoriy-huquqiy jihatdan mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, ichki audit xizmatining milliy standartlari tarkibiga professional axloq qoidalarini kiritish va ularni amaliyotga samarali joriy etish masalalarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Kasbiy rivojlanishga qaratilgan tashabbuslar ichki auditorlarning professional faoliyatini rivojlantirish, ularning kasbiy ehtiyojlarini muntazam baholab borish hamda malakasini oshirish tizimini takomillashtirishni



nazarda tutishi zarur. Ichki audit rahbari o'quv rejaları va byudjetlarini shakllantirishda ichki auditorlarning kompetensiyalarini rivojlantirishga investitsiya kiritish va ularning kasbiy o'sishiga keng imkoniyat yaratish o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashi lozim.

Shuningdek, ichki audit funksiyasi doirasida olinadigan, foydalaniladigan va shakllantiriladigan axborotlar amaldagi qonunchilik va me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida himoyalanihi zarur. Bunda jismoniy va raqamli xavfsizlik, axborotdan foydalanish, uni saqlash va zarur hollarda yo'q qilish bilan bog'liq tartib-taomillarni o'z ichiga olgan ichki audit siyosati va jarayonlarini takomillashtirish muhim hisoblanadi.

Ichki auditorlar tashkilotda etika tamoyillariga asoslangan professional madaniyatni shakllantirish va rivojlantirishga ko'maklashishlari, axloq qoidalarini adolat, xolislik va kompetentlik tamoyillari asosida amalga oshirishlari lozim. Shu bilan birga, ichki audit nazorati jarayonida belgilangan axloq qoidalariga to'liq amal qilishlari, murakkab yoki noaniq vaziyatlar yuzaga kelganda esa rahbar bilan maslahatlashgan holda maqbul yechimlarni qo'llashlari maqsadga muvofiqdir.

Davlat organlari va tashkilotlarida ichki auditorlar faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida professional axloq qoidalarini alohida normativ-huquqiy hujjat sifatida ishlab chiqish tavsiya etiladi. Ichki auditorlarning malakasini oshirish, xalqaro standartlar asosida muntazam o'quv-seminarlari tashkil etish hamda axloqiy tamoyillarga rioya etilishi ustidan nazorat mexanizmlarini kuchaytirish ichki audit tizimi samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, manfaatlar to'qnashuvining oldini olish, xolislik va maxfiylik tamoyillariga qat'iy rioya etish ichki auditorlarning professional faoliyatida ishonchlilik va samaradorlikni yanada mustahkamlaydi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-avgustdagi 416-son qaroriga ilova. "Davlat organlari va tashkilotlarining ichki audit xizmati to'g'risida Namunaviy nizom". <https://lex.uz/en/docs/-6136910>.
2. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2022-yil 3-oktabrdagi "Ichki audit milliy standartlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 52-son buyrug'i bilan tasdiqlangan hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil 30-dekabrda 3394-1-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan "Ichki audit milliy standartlari". <https://lex.uz/docs/7962434>.
3. Global Internal Audit Standards. – 2024.
4. AICPA. Code of Professional Conduct. – 2018.
5. Yusupov E. Inson kamolotining ma'naviy asoslari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 1998. – 116-b.
6. Husanov B., Xudoyberdiyeva M., Muhammadjonova L., Haydarova H. Kasb etikasi. – Toshkent: Noshir, 2012.
7. Zeszyty Naukowe SGSP. "Davlat moliya sektori bo'linmalarida ichki audit va boshqaruv nazorati". – 2022. – № 82. – B. 131.
8. Feghali Kh., Hallak J. International Internal Audit Standards (IIA) and the Geographical Location of International Groups: An Application to the Information Technology Sector // Risk Governance and Control: Financial Markets & Institutions. – 2019. – Vol. 9, No. 3. – P. 32–45.
9. Glover S. M., Prawitt D. F., Wood D. A. Internal Audit Sourcing and the Reliability of Financial Reporting Quality // Auditing: A Journal of Practice & Theory. – 2019. – Vol. 38, No. 1. – P. 123–145.
10. Kachelmeier S. J., Rimkus D., Schmidt J. J., Valentine K. The Forewarning Effect of Critical Audit Matter Disclosures Involving Measurement Uncertainty // Contemporary Accounting Research. – John Wiley & Sons, Inc. – P. 2186–2212.
11. The Institute of Internal Auditors. Code of Ethics. IIA Code of Ethics.

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

---

**2026. № 5**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)